

ETIKA VA DEONTOLOGIYA TAMOYILLARINING SUD-TIBBIY EKSPERTIZA O'RTA TIBBIY XODIMI FAOLIYATIDAGI AHAMIYATI

A.E.Baysunova, N.I.Uskenbayeva, O.O'.Xodiyeva

Respublika sud-tibbiy ekspertiza ilmiy-amaliy markazi Toshkent viloyat filiali.

Toshkent shahri, O'zbekiston Respublikasi email: toshvilsteb@mail.ru

Tel.: +998555159514

Annotatsiya: Sud-tibbiy ekspertiza sohasi o'zining o'ziga xos xususiyatlari, ya'ni yuqori huquqiy javobgarlik, ruhiy bosim va qat'iy sir saqlash talablari bilan boshqa tibbiyot yo'nalishlaridan ajralib turadi. Ushbu tizimda faoliyat yuritayotgan o'rta tibbiy xodimlar (laborantlar) ekspertiza jarayonining sifati va xolisligini ta'minlovchi muhim bo'g'in hisoblanadi. Ushbu maqolada sud-tibbiy ekspertiza o'rta tibbiy xodimlari faoliyatida kasbiy etika va tibbiy deontologiya tamoyillarining tutgan o'rni, ularning ma'naviy-huquqiy mas'uliyati hamda ish samaradorligiga ta'sirini tahlil qilishdan iborat. Maqolada o'rta tibbiy xodimlarning jabrlanuvchilar va marhumlarning yaqinlari bilan muloqot qilish madaniyati, ashyoviy dalillar hamda biologik namunalar bilan ishlashdagi mas'uliyati, sud-tibbiy ekspert bilan kasbiy hamkorlik zanjiri hamda sir saqlash (konfidensiallik) qoidalari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, ekstremal va stressli vaziyatlarda xodimlarning deontologik tayyorgarligi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: sud-tibbiy ekspertiza, o'rta tibbiy xodim, tibbiy etika, deontologiya, kasbiy mas'uliyat, konfidensiallik, ashyoviy dalil, muloqot madaniyati.

Sud tibbiy ekspertizasi - bu huquqiy tizimda muhim o'rin tutuvchi mutaxassislik bo'lib, inson hayoti va salomatligiga oid muammolarga huquqiy baho berishni o'z ichiga oladi. Sud tibbiy ekspertiza laborantlari (o'rta tibbiy xodim) bemorning tibbiy holatini, shifokorlarning xatoliklarini, jarohatlarni va boshqa tibbiy faktlarni aniqlash uchun muhim ma'lumotlarni yig'ishda ekspertga yordam beradi. Ularning ishida etika va deontologiya tamoyillari muhim ahamiyatga ega, chunki ularning faoliyati bevosita inson huquqlari, maxfiylik va kasbiy mas'uliyat bilan bog'liqdir.

Ushbu maqolada sud tibbiy ekspertiza laborantlari faoliyatida etika va deontologiyani ahamiyati, ularning amaliy qo'llanilishi, shuningdek, laborantlarning kasbiy burchlariga bog'liq muammolar va ularga oid yechimlar talqin qilinadi.

Sud tibbiy ekspertiza laborantining ishida etika bemorlarga va shunday holatlarda qatnashgan odamlarga ehtiyotlik, muhabbat va to'g'ri munosabat bilan yondashishni anglatrsa, deontologiya laborantlarning ishdagi mas'uliyatlari, ishga oid me'yorlarga amal qilish va tibbiy axborotlarni maxfiy saqlash kabi muhim omillarni belgilaydi.

Etika va deontologiya tamoyillari birgalikda sud tibbiy ekspertizasi sohasida kasbiy ishni samarali va adolatli amalga oshirishga yordam beradi.

Sud tibbiy ekspertiza laborantlari tibbiy ma'lumotlar bilan ishlashadi va bu ma'lumotlar bemorlar yoki jabrlanuvchilarning shaxsiy hayoti va holatlariga bog'liq. Bundan kelib chiqib, laborantlar o'z faoliyatida maxfiylik prinsiplariga rioya qilishlari kerak. Maxfiylikni buzish shifokor va ekspertlar uchun ham huquqiy va etik xatolikdir. Sud tibbiy ekspertiza laborantlari bemorning yoki jabrlanuvchining shaxsiy ma'lumotlarini faqat amaliy zaruriyatlarga ko'ra va shaxsiy ruxsat olish bilan taqdim qilishlari kerak.

Sud tibbiy ekspertiza laborantlari, har qanday tibbiy tekshiruvni amalga oshirishda, faqat va faqat ob'ektiv va aniq ma'lumotlardan foydalanishlari lozim. Bu jarayon laborantlardan ixtiyoriy yoki irqiy, milliy yoki boshqa sabablar bilan hukm chiqarishni taqozo qilmaydi. Ular har bir holatni barqaror va mustaqil baholashlari, amaliy va ilmiy tavsiyalar berishda har qanday shaxsiy yoki manfaatdorlik ta'siridan xoli bo'lishlari kerak. Shu bilan birgalikda o'z faoliyatida odamlarga, ularning holatlariga hurmat bilan yondashishlari kerak. Laborantlar bemorlar va jabrlanuvchilarga nisbatan katta hurmat va ehtiyotkorlikni ko'rsatishlari, ularni shifokor yoki sudning ishiga nisbatan qattiq va yetarli aniqlik bilan yondashishlari talab qilinadi. Har bir ekspertiza jarayonida bemorlarning huquqlari, ixtiyoriy va insoniy muomala tamoyillari saqlanishi zarur. Tibbiy ma'lumotlar bilan ishlashda katta mas'uliyatni his qilishlari kerak. Laborantlar o'z faoliyatlarida har qanday xatolikka yo'l qo'ymasliklari kerak, chunki bu bevosita jabrlanuvchilarga yoki jinoyatchilikka qarshi qurol bo'lishi mumkin. Laborantning amaliy xatosi qonun bilan javobgarlikka olib kelishi mumkin va bu shifokor va sudning ishini bo'shashtirishi mumkin.

Sud tibbiy ekspertizasida ko'p holatlarda laborantlar kasbiy etik va deontologik qoidalarga rioya qilish bilan bog'liq muammolarga duch kelishadi. Masalan, ma'lumotni maxfiy saqlash. Sud tibbiy ekspertiza laborantining ishi ko'pincha maxfiy ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Ularning ushbu ma'lumotlarni saqlashga bo'lgan mas'uliyati yuqori bo'lishi kerak. Mahfiylikni buzishni oldini olish uchun, laborantlar o'zlarining malakasini oshirishi, kasbiy etika bo'yicha treninglar o'tishlari zarur. Yosh mutaxassislardan to tajribali kadrlargacha kasbiy etika va deontologiya bo'yicha doimiy treninglar olib borish muhim ahamiyatga ega. Treninglar sud tibbiy ekspertizasida ishlashda ehtiyotkorlik, qonunchilik va etik qoidalarga amal qilishni tushuntirishga yordam beradi. Sud tibbiy ekspertiza laborantlari o'z faoliyatida javobgarlikni his qilishlari, o'z vazifalarini to'g'ri va samarali bajarishlari kerak. Etik va deontologik tamoyillarga amal qilish ularning ishini ishonchli, qonuniy va insonparvar qilishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, etika va deontologiya tamoyillari sud tibbiy ekspertiza laboranti faoliyatida muhim o'rin tutadi. Adolat, ob'ektivlik va inson huquqlariga

ehtiyot bo‘lish laborantlardan talab qilinadigan asosiy etik me‘yorlardir. Laborantlar kasbiy etika va deontologiyaga amal qilishlari, o‘z burchlarini anglab yetishlari va o‘zaro munosabatlarda samarali ishlashlari, shifokorlar va sud tizimiga ishonch va xavfsizlikni oshirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Tibbiyot muassasalagida qat’iy intizom o’rnatish, tartib va madaniyat olib kirish rnezonlarini belgilash to’g’risida” O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining 2025 yil 30- iyundagi 188-son buyrug‘i.
2. “Tibbiyot xodimlarining odob-axloq kodeksi”. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining 2022 yil 24- martdagi 88-son buyrug‘i.
3. “Sud-tibbiy ekspertiza va tekshiruvlarni o‘tkazish bo‘yicha milliy klinik protokol”. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi Respublika sud-tibbi ekspertiza ilmiy-amaliy markazi.. 2025-yil.